

## **YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA –O’QUVCHILAR RUHIYATINI HISOBGA OLISH**

Jizzax davlat pedagogika instituti “Umumiy psixologiya” kafedrasida o’qituvchisi  
Tashpo’latova Nodira Xudjamuradovna

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola kichik maktab yoshidagi bolalarni ruhan sog’lom, aql-zakovatli, baxtli bo’lishida nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog’lom bo’lishida, individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish masalarini o’z ichiga olgan.

**Kalit so’zlar:** sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat, akkomodatsiya, axloqiy tasavvurlar.

## **ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ - УЧИТЫВАТЬ ПСИХИКУ УЧАЩИХСЯ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются вопросы учета индивидуально-психологических особенностей детей младшего школьного возраста для того, чтобы быть психически здоровыми, умными, счастливыми, не только физически, но и духовно здоровыми.

**Ключевые слова:** интуиция, восприятие, память, созерцание, речь, аккомодация внимания, моральное воображение.

## **WHEN EDUCATING THE YOUNGER GENERATION –TAKE INTO ACCOUNT THE PSYCHE OF THE STUDENTS**

### **ANNOTATION**

This article covers the issues of how to make small school-age children mentally healthy, intelligent, happy, not only physically, but also morally healthy, taking into account individual psychological characteristics.

**Key words** - intuition, perception, memory, contemplation, speech, attention akkomodation, moral imagination.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga etkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz.

Kichik yoshdagi o'quvchilar 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bola psixikasida sezilarli o'zganishlar chog'i bo'lib, uning asosiy faoliyati o'qish bo'ladi, chunki bola maktabda sistemali odam bo'ladi, yangiliklardan xabardor bo'ladi. Maktabdagi ta'lim bolalarning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqatlariga yangi talablar qo'yadi. Ko'rish bilan idrok maktab ta'limida katta o'rin egallaydi. Gap shundaki, odam tashqi dunyodan keladigan axborotning asosiy qismini ko'rish retseptori faoliyati orqali olidi. Ya'ni ko'rish retseptori orqali olinadigan axborot hamma boshqa retseptorlardan keladigan axborotlarning 80% ga to'g'ri keladi. O'quvchilar dars paytida o'z diqqat e'tiborini uzoqdagi predmetlardan yaqindagi predmetlarga doimiy ravishda ko'chirib turishga to'g'ri keladi. Buni teskarisi ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'zni bunga moslashtirishga to'g'ri keladi – bu holat psixologiyada akkomodatsiya deyiladi. Akkomadatsiyaning eng yuqori diapazoni 10 yoshli bolalarda kuzatiladi. Mashg'ulot jarayonida goh uzoqqa, goh goh yaqiniga qarashdagi ikki ko'zning simmetrik holati konvergentsiya deyiladi. Shuningdek bu yoshda bolalar ranglarga ko'p qiziqadilar, ular rangning tuslarini ajratishga maxsus o'rgatilishi lozim. Kichik maktab yosh davrida fonetik eshitishning rivojlanish davridir.

Shuning uchun o'qituvchi nutqi ravon, tushinarli bo'lishi lozim. Kichik maktab yosh davridagi bolalarga e'tiborli bo'lish talab qilinadi.

Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning yaxshi-yomon tomonlarini biladi, ular uchun nimalar qiyin ekanligini payqaydi, bu kiyinchiliklarning oldini oladi va kimlarga yordamlashish zarur bo'lsa, o'shalarga ko'mak beradi. Bunday o'qituvchi g'oyat darajada hayajonli, serharakat bolalarni tinchlantiradi, uyatchan, tortinchoqlarni ma'qullaydi aktiv, iste'dodli bolalarga yana ish beradi, dangasalarni «harakatga solishga» urinadi, qobiliyatsizlarga qo'shimcha yordam ko'rsatadi.

Psixologlar tarbiyaviy ish metodlarining psixologik asoslarini ishlab chiqayotganlarida, tarbiyaning har qanday metodiga abstrakt tarzda qarab va uni baholab bo'lmaydi, degan fikrga asoslanadilar.

Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun, maktab o'quvchisining barcha vaziyat va holatlarda to'g'ri yo'l tutishni istashi hamda to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganlarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishni mashq qilish (bu – eng muhimi) zarur.

Bilimlar – axloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini egallamasdan turib haqiqiy e'tiqodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z-o'zidan bu bilimlar axloqiy xulq-atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi.

Ta'lim - juda keng ma'noga ega bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, o'rganish, o'rgatish jarayonidir. Bu ta'rif hozirgi zamon ta'limi uchun yetarli emas. Chunki hozir mustaqillik davrida ta'lim o'zining mazmuni bilan o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish bilan birga, o'quvchilarni hozirgi zamon ruhida milliy qadrlar, jahon madaniyati va maorifining ilg'or g'oyalaridan oqilona foydalanib tarbiya beruvchi, bola shaxsini rivojlantiruvchi, uni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ilmiy tushuncha va izlanishlarga layoqatli qiluvchi ta'lim hamdir.

Ta'lim ikki tomonlama jarayon;

1-dan, o'quvchi tomonidan bajariladigan, boshqariladigan,

2-dan, o`quvchi tomonidan bajariladigan jarayondir.

Demak, ta`lim jarayoni o`rganish va o`rgatish, o`rganib olish va uni hayotga tadbiq etish xususiyati bilan izohlanadi.

O`rganish (o`qitish) - bu o`qituvchining o`quvchilarga bilim, ko`nikma va malakalar berish, ularda yangi haqiqatni ochishga qodir bo`lgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O`rganish- bu o`quvchilarning o`qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni, qabul qilishlari jarayoni, o`zlarida bilish qobiliyatlarini, fikrlash operatsiyalari va harakatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu passiv mushoxada jarayoni emas, balki o`qituvchi tomonidan o`quvchilarga beriladigan bilim va malakalarni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir.

O`rganishning asosiy mohiyati shundaki, bunda - o`qish jarayonida o`quvchilar mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan foydalana olish ko`nikmasini o`z ichiga oluvchi aqliy va jismoniy mehnat elementlarini o`ziga sindiradi.

Ta`limning muvaffaqiyati o`quv materiallarning mazmunigagina, ta`lim usullarigagina emas, balki u ko`p jihatdan o`quvchining qanday o`qiyotganligini bilishga, ya`ni o`quvchining yosh xususiyatlariga, aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq malakalarni o`zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog`liqdir.

O`qish jarayoni - o`quvchining o`ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqliy, emotsional, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o`qishga nisbatan karor topgan munosabatlariga, uning qiziqish-xavaslariga bog`liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta`lim jarayoni o`quvchiga nimani va qanday qilib o`zlashtirishning oddiy bir xil natijasi emas, ya`ni sirtidan ta`sir qiladigan shart-sharoitlarning oqibati emas, balki o`quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog`liq ravishda amalga oshiriladi.

Bilimlarni o`rganib olish, uni o`zlashtirish quyidagi psixologik komponentlar asosida bo`ladi.

1. O`quvchilarning o`qishga ijodiy munosabatda bo`lishi :

2. Material bilan bevosita tanishish jarayoni :
3. Olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo`lgan fikrlash (tafakkur )
4. Qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotni esda olib qolish va esda saqlash jarayoni.

Agar o`quvchida o`zlashtirishning ana shu komponentlarini (tarkibiy qismlarini) hisobga olib ta`lim berilsa, har bir komponentda ta`limni o`zlashtirish jarayoniga e`tibor berilsa, o`quvchi uni muvaffaqiyatli o`zlashtiradi.

Jahon psixologlarining fikricha, bilimlarning boshqarishning mumkin bo`lgan yo`li - o`zlashtirish jarayonini berilgan topshiriqning o`zlashtirish jarayoni sifatida maxsus tashkil etishdir. Bu sohada yaxshiroq ishlangan tizim P.Ya.Galperinning aqliy harakatlarini etap(bosqichma-bosqich) bo`yicha tarkib toptirish nazariyasiga asoslangan ta`lim tizimidir. Bu nazariyaga muvofiq, odamning ontogenetik rivojlanishidagi harakatlar interiorizatsiyasi degan jarayonlar, ya`ni tashqi harakatlarning asta-sekin ichki aqliy harakatlarga aylanishi jarayonlari ro`y beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Pedagogika. Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik – T.: O`qish. 1990 y. 167-180 betlar.
- 2.A.K.Minavvarov. Pedagogika. – T.: O`qituvchi, 1996 y.
- 3.H.Yo`ldoshev “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta`lim muassasalari hamkorligi kontseptsiyasi”.2012 y.
- 4.Jumanova, N. (2021). ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ АКТИВАЦИИ, УСКОРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1332>
- 5.Majidov, J. (2020). ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР–СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *Архив Научных Публикаций JSPI.*

6. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA OILA MUHITINING O'RNI. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
7. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
8. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
9. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
10. Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗARO МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНИНГ АЙРИМ ҲУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>
11. Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
12. Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
13. Isaqulov, M. (2020). Юқори синф ўқувчилари тарбиясида виртуал стендларнинг ўрни. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(50)*. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6069](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6069)
14. Isaqulov, M. (2020). Formation Of High Spiritual Qualities In Youth. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(98)*. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/8012](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/8012)